

2022-yil 1-mart

“O‘zkimyosanoat” AJ va tizim korxonalari xodimlar bilan ishlash bo‘limlari mas‘ul xodimlari bilan sohadagi mavjud korrupsion xavf-xatarlar muhokama qilindi



Joriy yilning 25-fevral kuni “O‘zkimyosanoat” AJ va tizim korxonalari xodimlar bilan ishlash bo‘limi va xodimlarni tayyorlash va malakasini oshirish bo‘limi hamda malakalarni baholash markazlarining rahbar va mas‘ul xodimlari ishtirokidagi sayyor seminar-trening davomida mazkur sohadagi korrupsion xavf-xatarlarni oldini olish va bartaraf etish maqsadida proflaktik tadbir o‘tkazildi.

Tadbirda “O‘zkimyosanoat” AJ Komplayens xizmati boshlig‘i Sh.Sag‘dullayev tomonidan jamiyat va tizim korxonalarida ishga qabul qilinayotgan nomzodlarni tekshirish tartibi va sohadagi mavjud

korrupsion xavf-xatarlar to'g'risidagi ma'lumotlar tahlil etildi.

Jumladan, "O'zkimyosanoat" AJ ishga qabul qilinayotgan nomzodlarni tekshirish orqali korrupsion xavf-xatarlarni kamaytirish maqsadida 2021-yil 21-oktyabrdagi №129-sonli buyrug'i bilan "O'zkimyosanoat" AJ va tizim korxonalarida ishga qabul qilinayotgan nomzodlarni tekshirish bo'yicha yo'riqnomaga qabul qilinganligi ta'kidlab o'tildi.



Mazkur hujjat talablari asosida nomzodlarni tekshirish va ma'lumotlarni olish maqsadida ochiq axborot manbalaridan foydalanish, mavjud hujjatlar bilan ishlash hamda nomzodlarni tekshirish natijalari va ularni rasmiylashtirish tartibi, ularning muddatlari to'g'risida to'xtalib o'tildi.

Shu bilan birga, 2021-yilda "O'zkimyosanoat" AJ va tizim korxonalarida fuqarolarni ishga olish va mehnat munosabatlarida manfaatlar to'qnashuvi bo'yicha korrupsion xavf-xatarlar qayd etilganligi ta'kidlab o'tildi.

Jumladan, "Dehqonobod kaliy zavodi", "Farg'onazot" AJ ishga olish jarayonida ayrim xodimlari tomonidan 300 AQSH dollari miqdorida pora talab qilinganligi yuzasidan tekshiruvlar o'tkazilib, ularga nisbatan tegishli qonuniy choralar ko'rilgan.



“Navoiyazot” AJning 2 nafar mas’ul xodimlari mazkur korxonada oldin ishlagan ishchilarni ishga tiklash maqsadida 10 mln. so‘m miqdorda pul mablag‘lari olganligi holati hujjatlashtirilgan va qonuniy chora ko‘rish maqsadida Navoiy viloyati prokuraturasi huzuridagi departamentga yuborilgan.

“Birinchi rezinotexnika zavodi” MCHJ mas’ul rahbar xodimi bilan bog‘liq manfaatlar to‘qnashuvi o‘zi va 8 ta yaqin qarindoshlarining bir biriga to‘g‘ridan to‘g‘ri buysunuvchi lavozimlarini va xizmat yo‘riqnomasida ko‘rsatilgan vazifalarni o‘zgartirish orqali bartaraf etilgan.

Shu bilan birga, “Navoiyazot” AJ va “Ammofos-Maksam” AJlarida xodimlarni lavozimdan lavozimga o‘tkazish va xodimlarning shaxsiy oylik tarif koeffitsientini oshirish masalasi bilan bog‘liq 20 dan ortiq murojaatlar “O‘zkimyosanoat” AJ tomonidan ko‘rib chiqildi va aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish maqsadida tegishli takliflar berildi.

2021-yilda tarmoq korxonalarida jami 22 ta holatda manfaatlar to‘qnashuvi holati aniqlanganligi, mehnat munosabatlarida qonunbuzilish holatlarini o‘rganish maqsadida jami 49 ta xizmat surishtiruvu o‘tkazilganligi, natijalari bo‘yicha tegishli xulosalar korxonalar rahbariyatiga taqdim etilganligi alohida ta’kidlab o‘tiladi.

Ishga nomzodlarni tekshirish va ishga olish jarayonidagi mavjud korupsion xavf-xatarlarni inobatga olgan holda tegishli takliflar berildi.

Qolaversa, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 6-iyuldagi PQ-5177-son qarori talablari asosida nomzodlarni ishga qabul qilish jarayonlarini avtomatlashtirilgan tizimini joriy etish va har oy yakunida ishga qabul qilish jaryoni to‘g‘risida ma’lumotlarni ommaviy axborot vositalarida berib

borish tavsiya etildi.

Tadbir yakunida mazkur sohada o'zaro fikr almashish, ya'ni ISO 37001:2016 halqaro standartining 8.1 bandi (Xodimlarning majmuaviy tekshiruvi) va 8.2 bandi (Majmuaviy tekshiruv) to'g'risida muzokaralar o'tkazildi.

“O'zkimyosanoat” AJ Matbuot xizmati

source:

"O'zkimyosanoat" aksiyadorlik jamiyati

<https://new.uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/komplaens-sayyor-seminar-trening>